Annotatsiya: Ushbu maqolada Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktablari va o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqoti XX asr boshlarida Turkistonda amalga oshirilgan ta'lim islohotlarini va Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlarini tahlil qiladi. Maqolada Shakuriyning o'qitish usullari, darsliklari va ta'limga bo'lgan yondashuvi o'rganilib, uning zamonaviy pedagogika uchun ahamiyati ko'rsatib beriladi. Jadidlarning asosiy maqsadi maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, millatni ma'nan uyg'otish edi. Ular o'zbek xalqining boy madaniy merosiga tayanib, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangi ta'lim tizimini yaratishga harakat qildilar.

Kalit so'zlar: Abduqodir Shakuriy, yangi usul maktablari, jadidchilik, pedagogika, o'qitish metodikasi, ta'lim islohotlari, Turkiston.

Abstract: This article analyzes the educational reforms implemented in Turkestan at the beginning of the 20th century and Abdukadir Shakuri's pedagogical views. The article studies Shakuri's teaching methods, textbooks, and approach to education, and shows their significance for modern pedagogy. The main goal of the Jadids was to radically reform education, schools, and madrasahs, and their teaching methods, to change the education system, and to spiritually awaken the nation. They sought to create a new education system based on universal values, relying on the rich cultural heritage of the Uzbek people.

Key words: Abdukadir Shakuriy, new method schools, Jadidism, pedagogy, teaching methodology, educational reforms, Turkestan.

Аннотация: В статье анализируются образовательные реформы, проведённые в Туркестане в начале XX века, педагогические взгляды Абдукадыра Шакури, исследуются новометодные школы и методика преподавания Абдукадыра Шакури. В статье изучаются методы обучения, учебники и подходы Шакури к образованию, а также показывается их значение для современной педагогики. Главной целью джадидов было радикальное реформирование образования, школ и медресе, а также методов обучения в них, изменение системы образования и духовное пробуждение нации. Они стремились создать новую систему образования, основанную на общечеловеческих ценностях, опираясь на богатое культурное наследие узбекского народа.

Ключевые слова: Абдукадыр Шакурий, новометодные школы, джадидизм, педагогика, методика преподавания, образовательные реформы, Туркестан.

KIRISH

Abduqodir Shakuriy – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi va o'z davrining yetuk pedagogi hisoblanadi. Uning faoliyati asosan ta'lim tizimini isloh qilishga, zamonaviy bilimlarni tarqatishga va millatni ma'rifatparvarlik yo'liga undashga qaratilgan edi. Shakuriyning pedagogik islohotlari o'z davrining ijtimoiy-madaniy sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'sha davr uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi.

Jadidlar, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, millatni ma'nan uyg'otish uchun kurash olib bordilar. Ular o'zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo'lgan tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandilar. Shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma'naviy rahbari Abduqodir Shakuriyning o'qish-o'qitish, maktab va madrasa islohoti haqidagi fikrlari ta'sirida bo'ldilar. Jadidchilik harakatining mohiyatiga e'tibor bilan qaralsa, u ma'rifatparvarlik emas, balki ma'rifatchilik edi. "Ma'rifatchilik" iborasiga iste'dodli olim Sh. Rizaev alohida urg'u berib, uni atroflicha tahlildan o'tkazgan. Darhaqiqat, ma'rifatparvarlar asosan ma'rifat homiy-lari tarzida, "tashqaridan" turib, ya'ni xalqning iste'dodli farzandlarini qo'llab-quvvatlash orqali va o'z asarlari



yordamida bilvosita faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar, ma'rifatchilar bir paytning o'zida ham homiylar, ham ma'rifatning qora mehnatkashlari edi. Nazariy yo'nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog'liq holda olib borilishi jadid ma'rifatchilari uchun Yevropa ma'rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o'tgan yo'lni bir necha o'n yil ichida "kesib o'tish" imkonini yaratdi. Bu fidoyilik evaziga bunyodga keldi. [3]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Samarqandda birinchi "usuli jadid" maktabini ochgan, jadid pedagogikasining yirik namoyandasi Abduqodir Shakuriydir. Ushbu jadidning pedagogik faoliyatiga doir tadqiqotlar va izlanishlar deyarli olib borilmaganligi sababli, u haqidagi adabiyotlar mavzuni o'rganish jarayonida kam uchraydi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z "Vasiyatnoma"sida uni, tengdosh bo'lishiga qaramay, o'ziga juda yaqin olib, o'g'lonlari qatorida Vadud Mahmud bilan birga tilga oladi. Abduqodir Shakuriy o'z zamondoshlaridan farqli ravishda o'ziga xos muallimlik tug'ma qobiliyatiga ega inson edi. Vadud Mahmudning "Turk shoiri Ajziy" [3], "Maorifimiz" [4], Tursunqul (Rahim Hoshim)ning "25 yillik pedagog" [13] maqolalarida olim haqidagi dastlabki ma'lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Abduqodir Shakuriyning "Rahnamon savod" ("Savod chiqarish rahbariyati"), "Alifbe ta'limi", "Jome' ul-hikoyat" ("Hikoyalar to'plami") kitoblari, "Zubdat ul-ash'or" to'plami hamda "usuli qadim" o'qitish usuli haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, ish davomida ilmiylik, ketma-ketlik, analiz-sintez, grafik organayzer metodlaridan foydalanildi.

Jadidchilik harakatining mohiyatiga e'tibor bilan qaralsa, u ma'rifatparvarlik emas, balki ma'rifatchilik edi. "Ma'rifatchilik" iborasiga iste'dodli olim Sh. Rizaev alohida urg'u berib, uni atroflicha tahlildan o'tkazgan. Darhaqiqat, ma'rifatparvarlar asosan ma'rifat homiylari tarzida, "tashqaridan" turib, ya'ni xalqning iste'dodli farzandlarini qo'llab-quvvatlash orqali va o'z asarlari yordamida bilvosita faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar, ma'rifatchilar bir paytning o'zida ham homiylar, ham ma'rifatning qora mehnatkashlari edi. Nazariy yo'nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog'liq holda olib borilishi jadid ma'rifatchilari uchun Yevropa ma'rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o'tgan yo'lni bir necha o'n yil ichida "kesib o'tish" imkonini yaratdi. Bu fidoyilik evaziga bunyodga keldi. [3]

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidlar xalqning fikrlash darajasini oshirish ularni mustaqillikka yetaklaydi, deb o'ylashardi. Bu esa, albatta, yangi usuldagi maktablarni ochish orqali amalga oshirilardi. Lekin podsho hukumati bunday usuldagi maktablar faoliyatiga tazyiq o'tkazardilar. Har qanday ta'qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomlariga, bo'htonlariga qaramay, jadid maktablari xalq e'tiborini qozona oldi. Ayniqsa, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari va hamkorliklari general-gubernatorlik siyosatdonlari va mafkurachilari faoliyatini yanada kuchaytirdi. 1909-yilda Nikolay Ostroumov "Turkestanskije vedomosti" gazetasida maqola e'lon qiladi. Unda muallif quyidagilarni yozadi: "Rus ma'muriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan qo'llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o'lkadagi hukmronligimizning dastlabki o'n yilligida o'zini oqlagan bo'lishi mumkin. Ammo keyingi uch o'n yillikda bu siyosat o'zini oqlamaganini hech narsa bilan yashirib bo'lmaydi. Mana, chindan ham pushaymon bo'ladigan voqea sodir bo'ldi. Biz o'lkada... katta qiyinchiliklar bilan bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g'ayrat bilan o'lkaga maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari ma'muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo'l qo'yib bo'lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham bunday holat oblast, uезд ma'muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspeksiyasi nazoratisiz davom etmoqda." [4]

Bunday maktablar dastlabki vaqtlarda hukumat ruxsatisiz ochila boshlagan edi. Keyinchalik ularning ochilishi va butun faoliyati to'liq gubernatorlik nazoratiga o'tdi. Jadid maktablarining faoliyati endi nihoyatda og'ir kecha boshladi. Bir tomondan, mutaassib ulamolar, "usuli qadim" tarafdorlari "usuli jadid" maktablariga qarshi turli-tuman bo'htonlar uyushtirdilar, muallimlarini esa hatto kofirlikda aybladilar. Bu qatorda Abduqodir Shakuriy ham bor edi. Ular xalq bolalarini bunday maktablardan qaytarishga harakat qildilar. Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulkodir Maqsudiy tomonidan tuzilgan "Muallimi", "Muallimi soniy" kabi darsliklardan o'z vaqtida foydalanганиni ko'p bora eslaydi. Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo'lib, uning o'quv dasturini qattiq nazorat ostiga olishgan. Ular maktabda o'tiladigan diniy darsliklarga to'siq qo'ymas, ammo dunyoviy fanlar o'qitilishidan xavotirda edilar. Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchilik bilan qo'lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtlarda uni yashirib qo'yar ekan. [14]

Abduqodir Shakuriy maktabining o'ziga xos xususiyatlari: Shakuriy maktabida tojik va o'zbek bolalari birga o'qitilar edi. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan




kitoblar o'qitilar edi. Shu bilan birga, o'quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o'qilardi. Shakuriyning tarjimai holida aytilishicha, bu maktabda to'liq o'quv dasturi mavjud bo'lgan. U vaqtlarda maktablarda Qur'oni Karim o'qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usuldagi maktablarda ham diniy kitoblar o'qitilar edi. Chunki hech bir ota-ona Qur'on o'qitilmaydigan maktabga farzandini yubormas edi. Shu sabab, "Haftiyak" ham asosiy o'quv kitoblaridan biri hisoblanar edi. Tatar pedagogi Maqsudiy o'z maktabi uchun darsliklar tuzganda, arab tili qoidalari va alifbosini o'rgatishga alohida e'tibor bergan. Shakuriy ham o'z maktabida bunga qat'iy amal qilgan.

O'qitishdagi bu yondashuv savod chiqarishni osonlashtirardi. Shakuriy o'z o'quvchilari uchun har yili bir marta imtihon o'tkazar, unda ota-onalar oldida o'quvchilarning bilimlari namoyish qilinardi. Ota-onalar esa farzandlarining qisqa muddat ichida xat-savod, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganidan hayratga tushar edi. Shakuriy maktabining shuhrati keng yoyildi.

Bu holat O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning ham e'tiborini tortdi. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan yaqindan tanishgan. U 1909-yilda Shakuriy maktabini ko'rish va imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish tartibi va imtihon natijalari Hamzada katta taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy do'stlashib, yillar davomida yozishib turganlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Shakuriy faqat o'qituvchilik faoliyati bilangina cheklanmagan, balki o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'i hisobiga nashr ettirgan. U bolalar uchun o'z ona tilida darsliklar yaratish zaruriyatini chuqur tushungan. Axloq, odob va turmush qoidalari haqida dastlabki ma'lumot beruvchi darsliklar tuzishga kirishgan.

Avvalambor, Shakuriy "Rahnamon savod" (Savod chiqarish rahbariyati) nomli alifbe kitobini yaratgan. Bu kitob yaxshi qog'ozda, nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, shogirdi Rahim Hoshimning aytishicha, unda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, oxirida esa kichik matnlar berilgan.

1913-yilda Shakuriy rahbarligida Samarqandlik pedagog Ismatulla Rahmatullayev tovush-harf usuli asosida yangi alifbe tuzadi. Bu kitob Toshkentda nashr etilib, arab harflarida, tojik tilida yozilgan bo'lib, yillar davomida savod chiqarish bo'yicha eng yaxshi o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan. Uning kirish qismida savod chiqarish bo'yicha metodik maslahatlar berilgan. "Alifbe ta'limi" Ismatulla Rahmatullayevning 10-12 yillik mehnati hamda uning ustoz Shakuriyning amaliy tajribasi mahsuli bo'lib, boshlang'ich ta'limning turli metodlarini, tajribalarni va boshqa alifbe kitoblarini o'rganish natijasida yaratilgan. Kitob 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 dars uchun mo'ljallangan edi.



1-rasm: "Alifbe ta'limi" (Alifbe ta'limi yoxud rahbari maktab) kitobining muqovasi. Toshkent, 1915-yil.



Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob – “Jome’ul xikoyat” (“Hikoyalar to’plami”)dir. U qayta tuzatilib, to’ldirilib, 1911-yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang’ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir. Yetmish betli bu kitobning matni nafis qog’ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 ta she’riy parcha berilgan. A. Shakuriy ushbu “Jome’ul xikoyat” o’qish kito-biga Sharq mutafakkirlari Shayx Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning bolalarbop hikoya va she’rlari bilan bir qatorda L. A. Krilov, L. N. Tolstoy kabi rus yozuvchilarining bolalar uchun maxsus yozilgan asarlaridan namunalar kiritgan. Har bir hikoya oxirida, barcha maktab darsliklariga xos – tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi “qissadan hissa” chiqariladi. Kitobning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, undagi o’quv materiallarining barchasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob – “Zubdat ul ash’or” to’plami bo’lib, unda ko’plab shoirlarning she’rlari berilgan. ^[14]

Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi she’rda shunday deyiladi:

Ey muallim, maktabing taraqqiyot topib, sernur bo’lsin,
Yaxshi noming to abad, dunyoda mashhur bo’lsin.
G’ayrat qil, toki biz olimu dono bo’laylik,
Axir, bir savtiya usulining sevguvchilarimiz,
Tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil.
Har fandan bizga o’rgat, biz bahramand bo’lib,
Nodonlikni nari quvaylik.
Garchi nodon kishilar senga tana-haqorat etsalar ham g’am yema.
Albatta, dushmanlar sharmsor bo’lurlar!

O’sha davrdagi xatarchilik va to’sqinliklarga qaramay, xalqning bu sodiq do’sti, ma’rifatparvar pedagog Shakuriy butun kuch-quvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi. Katta g’ayrat, zo’r havas bilan “usul” asosida o’qish-o’rgatish tartiblarini o’rgandi, savodga o’rgatishning eng oson va qulay usullarini tanlab oldi. Yangi usul maktablari uchun darslik va qo’llanmalar tuzib, nashr qildirdi. Umuman olganda, A. Shakuriy “usuli jadid” maktablari uchun o’nga yaqin darslik va qo’llanmalar, majmualar yaratdi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o’z rahbarligida xotini muallimlik qilardi. Keyinchalik o’g’il bolalar guruhini birlashtirib, dars o’ta boshlaydi. Abduqodir Shakuriy 1917-yil to’ntarishiga qadar o’qituvchilik faoliyati bilan shug’ullandi.

1917-yilda Samarqand shahrining bir guruh ilg’or kishilari A. Shakuriyning pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921-yilda Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash va o’qitishga katta g’ayrat bilan kirishdi. Yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o’qituvchisi vazifalarida ishladi. Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo’lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo’jaligi va bog’dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o’rgatardi. Bu mashg’ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi. 1923-yil boshlarida “Pravda” gazetasi mamlakatimiz bo’yicha eng namunali ilg’or maktablar hamda mohir va tajribali o’qituvchilar uchun tanlov e’lon qildi. 1923-yil 8-iyul kuni gazetada ushbu tanlov natijalari e’lon qilindi. Ana shu o’qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o’qituvchilaridan A. Shakuriy ham bor edi. Boshqa ilg’or o’qituvchilar qatorida uning nomi ham “Pravda” gazetasining qizil doskasiga kiritildi, unga pul mukofoti topshirildi va Shakuriy haqida yaxshi maqola e’lon qilindi. Bundan ko’rinadiki, ma’rifatparvar pedagog Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil etish, o’qish-o’qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o’qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda katta xizmatlar qilgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.

1925-yilda A. Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o’z mablag’lari hisobiga to’rt sinfli maktab qurib, ishga tushirdi.

“Usuli jadid” nomini olgan, “usuli savtiya”ga asoslangan maktablar mohiyat e’tibori bilan “rus-tuzem” maktablariga qarshi vujudga keldi. “Usuli jadid” maktablarida milliy ma’naviyati yuksak, millat va Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalash birinchi o’rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta’lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma’naviyati asoslarini o’qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o’zligini saqlovchi asosiy vosita – ona tili va milliy adabiyot deb bildilar ^[6].



**Shakuriyning islohotlariga
oid asosiy yo'nalishlar
quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

1. "Usuli Jadid"ning joriy etilishi: Shakuriyning eng muhim hissasi – eski, an'anaviy "usuli qadim" o'qitish tizimiga qarshi chiqib, "usuli jadid" (yangi usul)ni targ'ib qilganligidir. "Usuli qadim" asosan Qur'on yodlashga va diniy bilimlarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, dunyoviy fanlarga e'tibor berilmas edi. "Usuli jadid" esa zamonaviy fanlarni (matematika, ona tili, tarix, geografiya) o'qitishni, o'qitish usullarini takomillashtirishni va o'quv jarayonini yanada samarali qilishni nazarda tutardi. Shakuriyning "usuli savtiya" (tovush usuli) deb ataluvchi yangi o'qish usuli bolalarning savod o'rganish jarayonini ancha tezlashtirdi va soddalashtirdi.

2. Yangi tipdagi darsliklarning yaratilishi: "Usuli jadid"ning samarali qo'llanilishi uchun Shakuriy o'z davri uchun zamonaviy va bolalarga tushunarli darsliklarni yaratdi. Uning "Jome ul-hikoyat", "Zubdat ul-hikoyat" kabi asarlari qiziqarli hikoyalar, masallar va she'rlar orqali bolalarga milliy qadriyatlar, axloq-odob, vatanparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalarini singdirishga xizmat qildi. Uning "Hisob" va "Geografiya" kabi darsliklari esa dunyoviy fanlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni taqdim etdi. Ushbu asarlardagi til sodda, tushunarli va bolalarga yoqimli bo'lib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli qildi.

3. O'qituvchilarning tayyorlanishi va malakasini oshirish: Shakuriy "usuli jadid"ning muvaffaqiyati o'qituvchilarning malakasiga bog'liqligini anglab yetdi. U o'qituvchilarga yangi metodikaga o'rgatish, darsliklar bilan ishlashni tushuntirish va ularning pedagogik malakasini oshirishga katta ahamiyat berdi. Uning sa'y-harakatlari natijasida ko'plab o'qituvchilar yangi usullardan foydalanishni o'rganib, "usuli jadid" maktablarida ishlashni boshladilar.

4. Ta'lim mazmunining boyitilishi: Shakuriy faqatgina o'qitish metodikasi bilan cheklanib qolmadi. U ta'lim mazmunini boyitishga, unda diniy bilimlardan tashqari, dunyoviy fanlarga ham katta o'rin berishga harakat qildi. Bu yondashuv yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga va ularni zamonaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan edi.

5. Maktablar tarmog'ining kengayishi: Shakuriyning sa'y-harakatlari natijasida Turkistonning turli hududlarida "usuli jadid" maktablari tarmog'i kengaydi. Uning g'oyalari ko'plab ma'rifatparvarlarni ilhomlantirdi va ular ham yangi maktablar ochishga kirishdilar.

2-rasm: Shakuriyning islohotlariga oid asosiy yo'nalishlar

Abduqodir Shakuriy faoliyati kurashlar jarayonida kamol topib borayotgan bir vaqtda Rossiya hukumati Turkiston o'lkasi xalqlaridan mardikor olish haqida farmon e'lon qildi. Mutaassib peshvolar ushbu farmondan foydalanib, Samarqandda faoliyat ko'rsatayotgan jadid pedagoglari va yozuvchilari doirasidan Hoji Muin, Faxriddin Rajiy bilan birgalikda A. Shakuriyni ham mardikorlikka jo'natdilar. U Minsk guberniyasida o'rmonlarda daraxt kesish, xandaq qazish ishlari bilan shug'ullanadi. Fevral inqilobi tufayli 1917-yil may oyida vataniga qaytadi va o'zi sevgan pedagoglik faoliyatini davom ettiradi. Abduqodir Shakuriy Samarqand viloyatida birin-chilar qatorida qiz bolalar uchun ham "usuli jadid" maktabi ochdi, unda xotini Mujsara muallimalik qildi. U o'z maktabiga rus tilini alohida o'quv predmeti sifatida dars jadvaliga kiritdi va bu fandan Saidaxmad Siddiqiy dars berdi. Umuman, Saidaxmad Shakuriy uchun eng yaqin maslakhdash va maslahatchi edi.

**XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asr boshlarida yurtimizda faoliyat yuritgan jadid mutafakkirlari xalqimizni ilm-ma'rifatli qilishda katta ishlar amalga oshirdilar. Ular tomonidan ochilgan yangi usul maktablari yoshlarga zamonaviy ilm-fan sirlarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo mustamlakachilik sharoitida bunday ishlarni amalga oshirish oson kechmadi. Turkistonni jaholatda ushlab turishni istagan mustamlaka ma'muriyati va mahalliy mutaassib kuchlar bunday maktablar faoliyatiga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Jadid maktablarini tashkil etgan mutafakkirlar turli yo'llar bilan siquvga olindi va faoliyatlariga chek qo'yildi. Shunday bo'lsa-da, ular amalga oshirgan ishlar izsiz ketmadi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan maktablarda savod chiqargan yoshlar orasidan keyinchalik yirik ziyolilar va olimlar yetishib chiqdi.

Shakuriyning pedagogik islohotlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bog'liq holda ba'zi qiyinchiliklarga duch keldi. An'anaviy ta'lim tizimini himoya qiluvchilar yangi usullarni rad etdilar, ammo Shakuriyning g'ayrati va izchilligi natijasida "usuli jadid" maktablari keng tarqaldi va o'z davri uchun ta'lim tizimida haqiqiy inqilob qildi. Uning islohotlari O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va uning nomi milliy ma'rifatparvarlik tarixida oltin harflar bilan yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dolimov, U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006.
2. Hoshimov, K., Nishonova, S. Pedagogika tarixi. 2-qism. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2005.
3. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy). 1-kitob. Fors tilidan tarjima: S. Mirzaev. – T.: Sharq, 1999.
4. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). Tojik tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar mualliflari: Sh. Voxidov, Z. Choriev. – T.: Akademiya, 2001.
5. Qur'oni Karim. Tarjimalar va izohlar muallifi: Alouddin Mansur. – 2004.
6. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. – T.: Mehnat, 1991.
7. "Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi" mavzusida Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Buxoro, 2008.
8. Turkistanda menilik hareketleri ve ihtilallar: 1900–1924. Osman Hoch anısına incelemeler. Hozirlagan: Timur Kochoag'lu. – Haarlem, SOTA, 2001.
9. Ta'lim ilmi – hal se'adati ebediyye. 62-baski. Tayyorlovchi: M. Gumush Fatih. – Istanbul, 1995.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.